

MAMLAKATIMIZDA INTELLEKTUAL MULKNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Jaloliddinova Mohira Alisher qizi

Toshkent moliya instituti magistratura bo'limi "Baholash ishi va rieltorlik" yo'nalishi 1-
bosqich talabasi

Tel: (90)939-83-23

Respublikamizda intellektual mulk bozori tizimining yaratilishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin.

Birinchi bosqich 1991-1995 yillarga to'g'ri kelib, bu davr jahon patent tizimi tajribasini o'rganish, sohaga oid ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, milliy qonunchilik asoslarini yaratish, davlatning vakolatli organi, ya'ni Davlat patent idorasi, Mualliflik huquqini himoya qilish agentligining tashkil etilishi va oyoqqa turishi yillari bo'ldi.

Ikkinchi bosqich 1996-2002 yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda intellektual mulk boyliklarini huquqiy jihatdan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari takomillashtirildi. Jumladan, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida", "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida", "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Bu yillarda faqatgina patent huquqi sohasida umummajburiy xarakterdagi 15 ta hujjat va idora faoliyatini tartibga soladigan 120 dan ziyod me'yoriy hujjat ham ro'yxatga olinganini qayd etib o'tish lozim. Bu rivojlangan davlatlarning shu sohada faoliyat olib boradigan idoralari tajribasini respublikamizda tizimli hamda samarali joriy etish imkonini berdi.

Uchinchi bosqich 2003 yildan boshlanib, hozirgi kuni qamrab oladi va bu yillarni "hamkorlar bilan ishlash davri" deb nomlash mumkin. Huquqiy muhofaza qilinadigan intellektual mulk obyektlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish, xalqaro anjumanlar o'tkazish orqali respublikamizda olib borilayotgan sohaga oid islohotlarni dunyo jamoatchiligiga yetkazish, sohaga oid milliy qonunchilikning qo'llanishi va xalqaro aktlarning ijrosi yuzasidan nazorat-tahlil ishlari o'tkazilishi, omma o'rtasida targ'ibot ishlarini yuritish kuchayganini shu yillarda ko'rish mumkin.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yuksak texnologiyalarning kirib kelishi natijasida yaratilayotgan yangiliklar, texnik yechimlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, o'simlik navlari, hayvonlarning yangi zotlari, mikrosxemalar topologiyalarini yaratuvchi ijodkorlarning huquqini himoya qilish zaruriyati intellektual mulkni yangi normalar asosida muhofaza qilishni taqozo etadi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqarish sohasiga innovatsiyalarni keng joriy qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy mahsulotlarni jahon bozoriga chiqarish va xalqaro savdo tizimida munosib o'rinni egallash yo'lida ulkan ishlar qilinmoqda. Birinchi Prezidentimizning 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2008 yil 15 iyuldagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida yaqin yillarga mo'ljallangan yo'nalishlar belgilab berildi. Birinchi Prezidentimizning 2011 yil 24 maydagi "O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etilgan agentlikka ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlari hamda egalarini huquqiy muhofaza qilish vakolati berilgani mazkur yo'nalishdagi ishlar samaradorligi ortishiga xizmat qilayapti.

Respublikamizda intellektual mulk huquqini rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ma'lumotlarga qaraganda, agentlik tomonidan 2017 yilning yarim yilligi mobaynida intellektual mulk obyektlariga 3939 (3324) ta talabnoma qabul qilindi, 2016 yilning shu davriga

nisbatan o'sish 18,5 % tashkil etdi. Ushbu davrda 4163 (3922) ta intellektual mulk obyektlariga talabnomalar bo'yicha davlat ekspertizasi o'tkazildi va o'tgan yilga nisbatan ushbu ko'rsatkich 6,1 % ga o'sdi.

Davlat reestrlarida 1664 (1408) ta intellektual mulk obyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazildi, o'sish 18,2 % tashkil etdi, shu jumladan: ixtirolar - 108 ta, foydali modellar - 48 ta, sanoat namunalari - 67 ta, tovar belgilari - 1062 ta, EHM uchun dasturlar - 352 ta, ma'lumotlar bazasi - 6 ta, seleksiya yutuqlari - 21 ta. Shuningdek, Agentlik tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan intellektual mulk obyektlariga oid 208 (165) ta shartnoma ro'yxatdan o'tkazildi, ulardan: huquqni boshqa shaxslarga (to'liq yoki qisman) o'tkazish shartnomalari 101 ta va lisenziya shartnomalari 107 tani tashkil etadi.

Intellektual mulkni baholash jarayonida quyidagi yondashuvlardan qo'llaniladi:

- a. Xarajat yondashuvi;
- b. Qiyosiy yondashuv;
- v. Daromad yondashuvi.

Ushbu uch yondashuvdaga qo'shimcha qilib, "Real Opsion yondashuvi" ham boshqa hisobotlarda joriy qilinadi. Ushbu yondashuv kelajakda aktivni ekspluatatsiya qilishning turli xil potensial shakllari mavjudligi va aktivning egasi (yoki aktivning potensial egasi) bunday shakllardan birini tanlash huquqiga ega ekanligiga asoslanadi. Ushbu tushunchaga muvofiq, aktiv egasi uchun intellektual mulkning kelajakdagi turli variantlardagi qiymatlari baholanadi. Patentli texnologiyalar bog'liq bo'lgan variantlar 2 xil hisoblanadi: uni sotib olish yoki sotib olmaslikdir. Moliya nazariyasida aktivning kelajakdagi qiymatini sotib olish varianti "Call option" (koll opsion) deyiladi.

"Real Opsion yondashuvi" ning bir afzalligi, bu maxsus formula asosida baholanayotgan obyekt qiymatini baholash mumkin, deb hisoblanadi.

Ushbu yondashuvning salbiy jihati shundaki, samarali baholashni ta'minlash uchun asosiy aktivning qiymati bo'yicha maxsus to'plangan ma'lumotlarni (boshqacha aytganda, patentlangan texnologiyalarning o'zini bozor bahosini) talab qiladi. Aksariyat hollarda bu masala bo'yicha maxsus konsalting firmasining xizmatidan foydalaniladi. Ushbu murakkabliklarni hisobga olgan holda, ushbu baholash usulidan baholash amaliyotida kamdan-kam foydalaniladi.

Yuqorida qayd etilgan xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlari maxsus ma'lumotlarni to'plashni talab etmaydi va odatda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan foydalanib, amalda qo'llash mumkin bo'lgan natijalarni beradi. Tabiiyki, uch xil yondashuv asosida baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar mavjud bo'lmasligi holatlari ham bo'lib turadi. Ana shunday holatlarda ham baholovchi o'z taxminlari va prognozlariga asoslangan holda ma'lumotni shakllantirib, kerakli natijaga erishishi mumkin.

Har qanday holatda ham, ushbu uch baholash uslublarini (yondashuvlarni) amalda tadbiiq etish jarayonida ularning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish muhim hisoblanadi.

Intellektual mulkni baholash va DCF uslubiga oid tushunmovchiliklar. Texnologik aktivlarni yoki boshqa intellektual mulk qiymatini baholashning tagida quyidagilar yotadi: "Odatda baholash usuli pul oqimlariga asoslangan Diskontlangan pul oqimi (DCF) usuli, hisoblanadiki, bunda o'z navbatida pul oqimlari intellektual mulk keltiradigan qiymatdan shakllanadi (yig'iladi)". Haqiqatda shundaymi?

Haqiqatni gapirganda, litsenziyalovchi yoki dasturiy ta'minot texnologiyasini taqdim qiluvchi kompaniyalardan tashqari, texnologik aktivpul mablag'larini yig'ib to'plab borishi deyarli mumkin emas. Texnologiya, agar u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmasa, pul oqimlarini yaratishda qatnashmaydi. Hozirgi vaqtda pul oqimlarini ikkiga bo'lib, ya'nibirinchisi texnologik aktivlardan olingan pul oqimlari hamda ikkinchisi boshqa biznes-aktivlardan olingan pul oqimlariga bo'linadigan pul oqimlarini baholash amaliyoti mavjud emas.

Bu biznesdan olingan pul oqimlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan qiymat umumiy biznesning qiymati deb tushuniladi va shuning uchun texnologiyani qiymati to'g'ridan-to'g'ri DCF usuli orqali aniqlanishi mumkin emas, degan ma'noni anglatadi.

Texnologiyalarni baholashda DCF usuli bilan hisoblangan texnologik aktivning qiymatini biznes qiymatidan ajratib olish kerak. Ushbu talabni ko'rsatadigan ma'lumotlar juda kam bo'lganligi

sababli texnologiyani baholash bilan bog'liq katta muammolarni keltirib chiqaradi. Boshqacha aytganda, muammo faqat empirik va an'anaviy odatiy amaliyotlar mavjudligi bilan bog'liqdir. Ushbu amaliyotlarga misollar bo'lib "25% qoidalar", "Foydani taqsimlash usuli" va royalti stavkalari asosida "Royaltidan ozod qilish uslubi" (Royalti Relif Metod) deb ataladi. Ushbu odatiy yondashuvlar yetarlicha nazariy va empirik tahlillar bilan qo'llab-quvvatlangani uchun emas, balkiular ko'plab baholash amaliyotida ishlatilgani uchun foydalanib kelinmoqda.

DCF usuli bo'yicha biznesni baholash va har xil taxminlar. DCF usuli orqali biznes qiymatini hisoblash turli taxminlarni talab qiladi. Birinchisi, texnologik aktivlar ishlatiladigan biznesning ko'lamiga taalluqlidir. Ushbu taxminlar biznes ko'lami kelajakda qanchalik katta bo'lishini (odatda sotish nuqtai nazaridan) va savdo hajmi qanday o'sishda davom etayotganini (ya'ni, o'sish darajasini) aniqlaydi. Bu taxminlar biznes qiymatini aniqlashda eng muhim elementlar hisoblanadi. Qisqacha aytganda, biznes ko'lamiga qarab pul oqimi miqdori va biznes qiymati o'zgarib turadi va agar texnologik aktivning tortilgan qiymati doimiy bo'lsa, texnologik aktivning qiymati biznesning qiymatiga monand ravishda o'zgaradi.

Muammo shundaki, biznes ko'lamini prognoz qilish kelajak haqidagi nazariy taxminlardan boshqa narsa emas. Baholovchi o'tmishdan to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda kompaniya ko'lamini aniqlash o'rniga, kelajakka oid nuqtai nazarni tasavvur qilishi kerak. Baholovchi qilgan kelgusi bashoratlar hamboshqalarda ishonch hosil qilishi kerak.

Biznes ko'lamini prognozlash jarayoni orqali baholovchi pul oqimi bashoratiga asosiy kapitalga investitsiyalar qilishni, amortizatsiya ajratmalarini va kelgusidagi operatsion kapital va majburiyatlarni oqilona chuqur o'ylagan holda o'zgartirish kiritishi nazarda tutiladi.

Pul oqimi bashoratini tugallagandan so'ng, baholovchi pul oqimlarini joriy qiymatlarga aylantirish uchun diskont stavkasini belgilab olishi kerak. Qo'llaniladigan diskont stavkasigamonand ravishda biznes qiymati o'zgarib turadi va u xatto texnologiyaning qiymatiga ham ta'sir qiladi. Diskont stavkasi odatda investor tomonidan biznesga kiritilgan investitsiyalardan kutilayotgan daromadga qarab belgilanadi. Boshqacha aytganda, biznesni mablag' bilan ta'minlaganlar, ya'ni aksiyalarni sotib olganlar yoki korxonalar korporativ obligatsiyalariga ega bo'lganlar, korxonani boshqaruvchilar o'zlari kiritgan investitsiyalardan ma'lum daromadlarni olishni kutadilar va bunda investitsiyalardan kutilayotgan foiz stavkasi diskont stavkasi sifatida qo'llaniladi. Diskont stavkasi ba'zan havf-xatarlarni alohida hisobga olgan holda belgilanishi mumkin, ammo u asosan, investitsiyalardan keladigan daromad asosida o'rnatiladi. Investitsiyalar bo'yicha daromad darajasi, shuningdek, kelajakdagi daromadning prognozidir.